



SANGZOR DARYOSI HAVZALARI YUKSAK O‘SIMLIKLARI FLORASINING TAHLILI

Berdiqulova Nargiza Yusufjon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti.,
nargizaberdiqulova@jdpu.uz

Berdiqulov Xudoyshukur Keldiyorovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti v.b dotsenti.
xberdiqulov@inbox.ru

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Sangzor daryosi havzasi o‘simliklar qoplamining ahamiyati va ulardan oqilona foydalanish haqida yoritilgan bo‘lib, Sangzor bo‘ylab qayir o‘simliklarini muhofaza qilish, daryoning yirik irmoqlari suvlarini toza holda saqlash maqsadida ular bo‘ylab joylashgan qishloq va qo‘rg‘onlarni daryolar o‘zanidan qonunda belgilangan masofada joylashtirish zarur.

Tuzilgan “O‘simliklar xaritasi” boshqa tuziladigan tematik xaritalar (landshaft, o‘rmon, dorivor o‘simliklar, yaylovlar, er resurslari va boshqalar) uchun reper vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari, rejalashtiruvchi tashkilotlar, o‘rmon, yaylov va o‘simlik resurslarini tayyorlashda, rekonstruksiya qilishda, biologik xilma-xillik va genofondni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: o‘simliklar qoplami, Sangzor daryosi, sistema, flora, tuproq, antropogen omillar, archazor, dorivor o‘simliklar

Kirish

Sangzor daryosi havzasi Turkiston tog‘ tizmasining g‘arbiy qismidagi tabiiy-geografik sharoitiga ko‘ra o‘ziga xos flora va o‘simliklar qoplamining sarhadi hisoblanadi. Shuning bilan bir qatorda havzada barcha antropogen, texnogen va tabiiy omillarning yig‘indisi ham mavjuddir. Bular shu havzadagi biologik xilma-xillikdagi o‘zgarishlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, antropogen omilning tinimsiz va kuchli ta’sirini davom etishi mumkinligini hisobga olgan holda



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th September, 2025

ushbu hudud o'simliklar qoplamining tipologik tuzilishini, fitotsenotik xilma-xilligini hozirgi holatini xaritalash metodi bo'yicha inventarizatsiyalash, o'simliklarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va ularni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqishdagi mavjud muammolar uning davlat miqyosidagi dolzarbligini ko'rsatadi.

O'simlik jamoalaridan xalq xo'jaligining turli sohalarida har xil maqsadlarda, jumladan chorvachilikda, xomashyobop o'simliklarni tayyorlash, qolaversa ular tashkil etgan keng manzarada uchrovchi turlardan oqilona foydalanish jarayonida ularning botanik xilma-xilligini, biologik xususiyatlarini o'rganish hamda ularning shartli birlamchi zamonaviy holatini muhim genofondi sifatida ish yuritishni taqozo qiladi. Shu boisdan o'simlik jamoalari, jumladan ularning tarkibiy qismida etakchi va shakllantiruvchi ayrim xususiyatlar tabiiy-geografik, geobotanik va ma'muriy tumanlar doirasida o'rganilsa, ularning kadastrini belgilovchi son va sifat ko'rsatkichlarini qo'shni hududlarga nisbatan o'xshash va o'ziga xos tomonlarini aniqlash, taqqoslash, baholashga imkon tug'iladi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot hududida olib borilgan geobotanik tadqiqotlar «Polevaya geobotanika» qo'llanmasi asosida olib borildi. O'simlik jamoalari dala tadqiqotlari davomida o'rganish chegaralari 20x20 m² dan kam bo'lmagan maydonchalarda olib borildi. O'simlik turlarining mo'lligi esa Drude ning 7 balli tizimi bo'yicha aniqlandi.

Xarita tuzish ishlari kosmosdan olingan suratlarning (LANDSAT TM, 2009) deshifrovkasi asosida bajarildi. Xaritalash ishlari 4 bosqichda o'tkazildi:

- tayyorgarlik ishlari (topoxaritalar, KFS larni tanlash).
- kameral (laboratoriya) sharoitida kosmik suratlarning deshifrovkasi.
- dala korrektirovkasi, yig'ilgan ma'lumotlarning tahlili.
- xaritaning mualliflik nusxasi tuzilib, izohini ishlab chiqish.

Ushbu bosqichlar bajarilgandan so'ng xaritaning ko'p bosqichli izohi topo-tipologik tamoilda tuzildi. Tuzilgan “Zominsuv havzasi o'simliklar qoplamini xaritasi” da 36 ta kartografik birliklarning chegarasi, ularning mintaqalar bo'yicha tarqalishi va antropogen omil birliklari uch bosqichli A, B, V indekslarda ko'rsatilib berildi.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th September, 2025

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Oʻrmonlar va yaylovlarga boy boʻlgan Sangzor havzasi oʻsimliklar dunyosi insonlar tomonidan oʻzlashtirish uchun qulay boʻlganligidan qadimdan keng foydalanib kelingan. Katta maydonlarni egallagan archazorlar mahalliy aholi uchun qurilish va yoqilgʻi materiallarining asosiy manbai sifatida xizmat qilib keldi.

Oʻzbekiston oʻrmon tuzish korxonasining maʼlumotlari boʻyicha 1991-1992 yillarda Baxmal tumanida oʻrmon xoʻjaligini tashkil qilish va rivojlantirish uchun loyiha ishlari oʻtkazilgan va Baxmal oʻrmon xoʻjaligini 1:50000 masshtabdagi xaritasi tuzilgan hamda undan foydalanishga 1992 yil 26.03 da ULP №1 DSP ruxsat etgan. Baxmal oʻrmon xoʻjaligi Molguzar togʻining janubiy-gʻarbiy yon bagʻrilarini d.s. 1600-1700 metr dan 2400-2500 m boʻlgan balandlik bosqichini, Turkiston togʻlarining shimoliy yon bagʻrlarini d.s. 1600-3500 m balandlik bosqichini egallagan, yaʼni oʻrta va baland togʻ mintaqalarida joylashgandi. Maydoni 60784 ga, oʻrmon bilan qoplangan maydon 15 312 ga, siyrak oʻrmonzor 18 584 ga, madaniy oʻrmonzor 2768 ga, taqir erlar 9554,5 ga, yaylovlar esa 14549 ga edi. 2004 yilda M. 1:50000 da tuzilgan Baxmal tumanining qishloq xoʻjalik xaritasida Baxmal oʻrmon xoʻjaligining hududi va chegaralari 1991 yilda tuzilgan Oʻzbekiston oʻrmon tuzish korxanasining 1:50000 masshtabdagi xaritasiga toʻgʻri keladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Baxmal tumani statistika boshqarmasi maʼlumotlari boʻyicha [175] 1-yanvar 2011 yilga qadar Baxmal tumanidagi qishloq xoʻjaligi maydonlari 106562 ga, haydaladigan er 39370 ga, mevali bogʻlar va uzumzorlar 3777 ga, yaylovlar 60 559 ga, pichanzor 255 ga, boʻz erlar 2633 ga boʻlgan. Chorva mollaridan: yirik shoxlilari 121300, qoʻy va echkilar 208100, yilqilar 3100, parrandalar 139300. Chorvachilik fermer xoʻjaliklari soni 2010 yil 1-fevralgacha 31 boʻlgan. Ular qoʻlida yirik shoxli mollar 3618, qoʻy va echkilar 4720, yilqilar 59 bosh. va parrandalar 32800 dona boʻlgan. Bunday olib qaraganda chorva mollarining katta ulushi xususiy kishilar qoʻlida boʻlib, ular chorvalarini qayerda boqmoqdalar? Chorvador fermerlar qoʻlida atigi 2817 ga er bor xolos. Lekin tumanda 60559 ga yaylov bor. Baxmal oʻrmon xoʻjaligida ham 14549 ga yaylov bor. Hammasi boʻlib 75108 ga yaylov bor. Chorva mollarining umumiy soni esa (parrandalardan tashqari) 332500 boshni tashkil etadi.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th September, 2025

Yuqoridagilar statistik ma'lumotlarga kirgan raqamlar. Bunga kirmaganlari ham bo'lsa, ehtimol. Chorva archazorlarda boqilmoqda. Shuning uchun ham archazorlar payhonlanmoqda. 1991 yilda Baxmal tumanida o'tkazilgan, "O'rmon tuzish va rivojlantirish loyihasi" ma'lumotlari bilan tanishib chiqsangiz bunga imoningiz yana bir karra komil bo'ladi. Chunki, unda archazorlarni boshqa tashkilotlarga uzoq muddatli foydalanishga berish, u yerlarda poda boqilishi haqida axborotlar bor. Yana archazorlarda mol boqilishi oqibatida ularni payhonlanish darajasi (kuchli, o'rtacha, kuchsiz) haqida ham ma'lumotlar bor.

Agar ishlar shu zaylda ketaversa, asrimiz oxiriga qadar biz bu archazorlardan ayrilib qolishimiz mumkin. Archazorlarni yuqori qismlari ayrim sabablarga ko'ra saqlanib qolishi mumkin. Ammo bizni keng miqyosda suv bilan ta'minlab turgan bu o'rmonlarni (atmosfera yog'inlarini ushlab qolib tuproqqa o'tkazayotgan, er ostidan buloqlar bo'lib bizga etib kelayotgan suvlar), tog' qiyaliklaridagi tuproqlarni ildizlari bilan mahkamlovchi va eroziya jarayonini keskin kamaytiruvchi, nafas olayotgan havomizni kislorodga to'yintiruvchi va hokazolarni bajaruvchi archazorlar va boshqa daraxtzorlarni, hamda o'simliklar dunyosini avaylab asramasak nima bo'ladi? Tog'-u toshlar, kengliklar cho'lga aylanadi. U yog'i esa ma'lum.

O'rmonzorlarni asrash bilan chorvachilikni rivojlantirish uchun chorvadorlarga uzoq muddatli foydalanishga berilayotgan o'rmonlar shartlari tizimini qayta ko'rib chiqish lozim. Yaylovlardan almashinib foydalanish tizimini yanada takomillashtirish kerak. Bu masalalar ilmiy izlanishlarni talab etadi, agar ularni o'zboshimchalikka tashlab qo'ysak yuqorida aytilganlarning (cho'llanish) avj olishini sababchisi o'zimiz bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, o'simlik qoplamlarining jamoalari, yaylovlar va ularning dominant turlarining payhon bo'lishiga asosiy antropogen omillar quyidagilar hisoblanadi:

1. Urbanizatsiyaning oqibatlari, ya'ni yangi qishloq va shaharlarning qurilishi, yangi erlarning o'zlashtirilishi.
2. Texnogen (yo'llar, yuqori voltli elektr simlarining o'tkazilishi, kanallar, suv omborlari, geologik ishlar va bosh.) omillarning ko'payishi.
3. Chorva sonining me'yoridan ko'pligi.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th September, 2025

Sangzor daryosi havzasidagi adir mintaqasi 85-90% o'zlashtirilgan va yangi madaniy mintaqa-voha vujudga kelgan. Chorva mollari esa tog'lardagina (archazorlar, butazorlar va suvayirg'ichlardagi bug'doyiqzor va betagazorlarda) boqilmoqda. Davlat chegarasi tufayli Turkiston tog'ining baland tog' yaylovlariga chorvadorlar o'tmaydi. Baxmal tumani hokimiyatidagi ma'lumotlarga ko'ra 60559 ga yaylov va Baxmal o'rmon xo'jaligidagi 14549 ga yaylovlar tumandagi chorva mollari uchun kamlik qilmoqda. Natijada, chorvadorlar o'z mollarini archazorlarda ham boqishga majbur bo'lmoqda.

Umumiy maydoni 75108 ga yaylovi bo'lgan tumanda endi chorvani dalada haydab boqish bilan birga fermalarda va qo'tonlar atrofida ko'proq turg'un holda boqishga o'tish davri kelmadimikan?! Bunda chorva uchun ozuqa-xashaklar etishmasligi vujudga kelishi mumkin. Bu muammoni shu ferma va qo'rg'onlar atrofidagi erlarda yuqori hosil beruvchi o'simlik turlarini ekib, pichan etishtirib, silos qilib ya'ni fitomelioratsiya orqali yechish imkoniyati bor!

X.Shomurodovning ma'lumoti bo'yicha bunday fitomelioratsiya ishlari Tojikistonning qo'shni G'onchi va Samarqand viloyatining adirlarida amalga oshirilgan. Fitomeliorantlar: izon, teresken, Farg'ona shuvog'i, Xuroson va Kavkazorti zirakli o'tlari hamda sharq qatrani.

Biz archazorlarimizni saqlab qolish va chorvachilikni ham rivojlanitirish haqida o'z fikrlarimizni aytdik, xalos.

Yana bir narsani aytish lozimki, hozirgi vaqtda yaylovlarda (adir va tog'lardagi) uchrayotgan o'simlik assotsiatsiyalari va formatsiyalari tarkibida chorva mollari iste'mol qilmaydigan o'simlik turlari ko'payib ketgan. Ular hatto, assotsiatsiya va formatsiyalar tashkil etgan. Masalan xapri formatsiyasi (dominant *Perovskia scrophularifolia*) va assotsiatsiyalari. Ular hatto tog' mintaqasidagi boshqa o'simliklar qoplamida ham uchramoqda. *Centaurea squarrosa*-boshqa o'simliklar jamoasida keng tarqalgani *Zizphora pedicillata*, *Origanum tyttanthum* va boshqa shu oila vakillari hatto siyrak archazorlar tarkibida uchramoqda. *Astragalus bactrianus* tikonyostiqa hosil qilib, chorva mollarini o'zidan qochiradi. Bu o'simlik ham formatsiya va assotsiatsiyalar hosil qilgan. Bularning hammasi chorva mollarining oshiqcha boqilishining va ko'pligining oqibatidir. Tog'larda va baland tog'larda tarqalgan friganalar (tikanyostiqa hosil qiluvchi *Onobrychis echidna*,



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th September, 2025

Acantholimon erythraeum, *A. tataricum*, tikonoʻtli oʻtzorlar edificatorlari *Scorzonera acanthoclada*, *Cousinia verticillaris* va bosh.) ning maydonlari kengayib ketgan.

Sangzor havzasi em-xashak oʻsimliklaridan tashqari juda koʻplab dorivor, asaldor, oshlovchi, buyoqbop, ozuqa, efirmoyli, vitaminli manzarali va boshqa oʻsimlik resurslariga boy hisoblanadi. Bulardan tashqari havzada “Oʻzbekiston qizil kitobi”ga kiritilgan oʻsimlik turlaridan: *Aconitum talassicum* Popov., *Astragalus belolipovii* Kamelin ex F.O. Khass.et N. Sulejm., *A. knorringianus* Boriss., *A. leptophysus* Vved., *Eremurus robustus* Regel., *Tulipa affinis* Botschantz., *T. korolkovii* Regel., *Colhicum kesselringii* Regel., *Ferula sumbul* Kauffm., *F. fedtschenkoana* Koso-Pol oʻsimlik jamoalari tarkibida uchraydi.

Xulosa

Sangzor boʻylab qayir oʻsimliklarini muhofaza qilish, daryoning yirik irmoqlari suvlarini toza holda saqlash maqsadida ular boʻylab joylashgan qishloq va qoʻrgʻonlarni daryolar oʻzanidan qonunda belgilangan masofada joylashtirish zarur. Tuzilgan “Oʻsimliklar xaritasi” boshqa tuziladigan tematik xaritalar (landshaft, oʻrmon, dorivor oʻsimliklar, yaylovlar, yer resurslari va boshqalar) uchun reper vazifasini oʻtaydi. Bundan tashqari, rejalashtiruvchi tashkilotlar, oʻrmon, yaylov va oʻsimlik resurslarini tayyorlashda, rekonstruksiya qilishda, biologik xilma-xillik va genofondni muhofaza qilish tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Акжигитова Н.И. Разнообразие растительных сообществ основных формации субалпийского пояса Западного Тянь-Шаня //Биоразнообразие западного Тянь-Шаня: охрана и ратциональное использование: Материалы республиканской научной конференции. Ташкент, 2002. – С. 32-35.
2. Акжигитова Н.И., Майлун З.А. Высокогорные дерновинистые степи – Срѣхеропоиа / Растительный покров Узбекистана и пути его ратционального использования. В 4-х т. – Ташкент: Фан, 1994. Т. 4. – С. 170-198.
3. Бахиев А.Б., Трешкин С.Е, Кузмина Ж.В. Современное состояние тугаев Каракалпакстана и их охрана. – Каракалпакстан: Нукус, 1994. –72 с.



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th September, 2025

-
4. Зокиров Ш.С., Попов В.А. Ландшафтно-экологическая карта // Экологический атлас Узбекистана. Юнеско. – Ташкент, 2007. – С. 36-37.
 5. Pratov O‘.P., Nabiyeu M.M. O‘zbekiston yuksak o‘simliklarining zamonaviy tizimi. – Toshkent, 2007. – 62 b.